

**QO‘QON UNIVERSITETI HUZURIDAGI FILOLOGIYA FANLARI
BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

RAIMOVA XILOLA MA‘MURJON QIZI

AMIRIY VA XORAZM ADABIY MUHITI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Raimova Xilola Ma‘murjon qizi Amiriy va Xorazm adabiy muhiti.....	3
Raimova Khilola Ma‘murjon kizi Amiri and Khorezm literary environment.....	27
Раимова Хилола Маъмуржон қизи Литературная среда Амирия и Хорезма.....	53
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati List of published works Список опубликованных работ.....	61

**QO‘QON UNIVERSITETI HUZURIDAGI FILOLOGIYA FANLARI
BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

RAIMOVA XILOLA MA‘MURJON QIZI

AMIRIY VA XORAZM ADABIY MUHITI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3757 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uchi tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qo'qon universiteti veb-sahifasining (www.kokanduni.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qobilova Zeboxon Bakirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rajabova Marifat Baqoyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Asqarov Dilmurod Musajon o'g'li
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil "30" "12" soat 14.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28-a uy.)

Dissertatsiya bilan Qo'qon universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (18 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28-a uy.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 18 » 12 kuni tarqatildi.

(2025-yil « 18 » 12 daqi № 5 raqamli reyestr bayonnomasi.



Jamil

B.S.Ja'farov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

M.G.
M.G.Najmiddinov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kome filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

G.M.
G.M.Oripova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshimchi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida adabiy ta'sir, adabiyotlararo aloqalar masalalarini o'rganish doimo kun tartibida bo'lgan. Asrlar davomida yaratilgan har bir san'at asari o'z davri tafakkur dahosining hosilasi bo'lishi bilan birga yillar davomida shakllanib, vorisiylik silsilasi orqali etib kelgan an'analarning yangi ko'rinishdagi ifodasi hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur masalani ilmiy tadqiqot obekti sifatida o'rganish, tarixiy takomilini belgilash adabiyotshunoslikda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligi ilmida badiiy ijodda bahramandlik va ta'sir ko'rsatish masalasi tadqiq etilishi zarur bo'lgan asosiy ilmiy muammolardandir. Ayniqsa, salaflar hamda zamondosh ilg'or shoirlarga izdoshlik qilish, ularning asarlariga monand ravishda badiiy ijod bilan shug'ullanish Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan hodisa sanalgan. Adabiy ta'sir natijasida iste'dodli ijodkorlar o'z dunyoqarashini takomillashtirgan, mahoratini o'stirgan, uslubini charxlagan.

O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz so'z san'atkorlari yaratgan ijod namunalarini atroflicha o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Zero, "o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini har tomonlama o'rganish va keng targ'ib qilish, uni bugun yuz berayotgan murakkab jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur xulosalar chiqarish ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda, hech shubhasiz, katta ahamiyatga ega"¹. Shu ma'noda, Amiriy ijodini, uning Xorazm shoirlari ijodiga ko'rsatgan ta'siri masalasini atroflicha yoritib berish adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Sharqda ustoz-shogirdlik an'anasi nihoyatda keng tarqalgan. Ustozlarga munosib bo'lish, ular maqomiga yetishish – shogirdlar uchun katta baxt hisoblangan. O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ulug' so'z san'atkorlari qatorida sanaladigan Umarxon Amiriyni ham nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlar shoirlari ham o'zlariga ustoz deb bilganlar. Chunki u o'zigacha bo'lgan turkiy va forsiy adabiyotning ilg'or an'analari va muhim yutuqlarini o'z ijodida birlashtirgan edi. Qo'qon adabiy muhiti asoschisi va uning yorqin namoyandasi Amiriy ijodiyotining Xorazm adabiy muhitiga ta'siri masalalarini o'rganish o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy xulosalarni taqdim etishi shubhasiz. Mavzuning muhimligi va dolzarbligi ham ayni shu jihat bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi,

¹Мирзиёев Ш. Эркин Воҳидов ижодига бағишланган адабий фестивал катнашчиларига табриги. 23.05.2024. <https://president.uz/oz/lists/view/7253>

2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek mumtoz adabiyotining tarixiy taraqqiyoti, xususan, asrlar davomida shakllangan adabiy an‘analarni mushohada etish, so‘z san‘ati ta‘sir kuchi, badiiy imkoniyatlarini ochib berishda Amiriy va uning o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o‘rni, qayd etish joizki, alohida ahamiyat kasb etadi. Amiriy ijodiga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashish, xususan, uning adabiy ta‘sir rivoji uchun qo‘shgan hissasi yuzasidan adabiyotshunoslikda salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu haqda amiriyshunos olimi, filologiya fanlari doktori, professor Zeboxon Qobilova tadqiqotlarida batafsil ma‘lumot berilgan².

Adabiy ta‘sir, adabiy aloqalar masalasi, turkiy aruz va qofiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy uslub, an‘ana va novatorlik kabi masalalar ham o‘zbek adabiyotshunosligining doimiy kun tartibida bo‘lgan³.

Xorazm adabiy muhiti haqida, bu muhit vakillarining hayoti va ijodi masalasida, shuningdek badiiy adabiyotdagi izdoshlik borasida ham qator ishlar amalga oshirilgan⁴.

² Бу ҳақда қаранг: Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти. Филол. фан. номз. ...дис... – Тошкент, 2007. – 134 б.; Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърят мисолида). Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2021. – 280 б.

³ Аҳмад Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хази́на, 1985. – 216 б; Фитрат А. Адабиёт коидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 112 б; Акрамов Б. Ҳозирги замон муҳаббат лирикасида традиция ва новаторлик проблемаси. Филол. фанл. номз... дис. – Тошкент, 1967. – 172 б; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. (Қадимий давр ва ўрта асрлар маданий алоқалари). – Тошкент: O‘zbekiston, 1997. – 210 б; Абдуғафуров А. Қалб қаъридаги қадриятлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – 216 б; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б; Муҳиддинов М. Қ. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепсияси (“Хамса”ларнинг биринчи дostonлари асосида). Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Самарқанд, 1995. – 288 б; Рўзмонова Р. Алишер Навоий анъаналарининг Усмонли турк шеърятига таъсири. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2011. – 146 б; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари ва маҳорат масалалари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 260 б.

⁴ Халлиева Г. Огаҳий мусамматлари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – 208 б; Ruziboyev T. Taxmis genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi (Alisher Navoiy an‘analari asosida). Filol. fan. b. fals. d-ri. ... diss. – Namangan, 2023. – 132 б; Исмоилова Г. Феруз даври Хоразм адабий муҳити. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995; Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис (“Мажмуаи си шуароӣ пайрави Ферузшоҳӣ” асосида). Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2007; Файзуллаев Б. Ўзбек шеърятда татаббу тарихи ва маҳорат масалалари. – Тошкент, 2002; Мирзаев В. Аваз Ўтар ўгли (хаёти ва ижоди). Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1962; Матёкубова Т. Огаҳий шеърятда анъанавий образлар талқини. Филол. фан. номз. ...

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Poetika muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Amiriy ijodining Xorazm adabiy muhitiga ta'siri misolida adabiy ta'sir va ijodiy izdoshlikning mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikdagi mezonlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qo'qon va Xorazm adabiy muhitlari tarixini o'rganish, o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

Amiriy va Feruzning madaniy hayotdagi o'rnini qiyoslash;

XVIII-XIX asrlar o'zbek mumtoz she'riyatidagi adabiy ta'sir masalasini Amiriyning Xorazm adabiy muhiti vakillari, jumladan, Munis, Feruz, Ogahiy, Tabibiy, Avaz, Rojiy Xorazmiy, Otaniyoz Niyoziy ijodiga adabiy ta'siri orqali ochib berish;

Amiriyga tatabbular va taxmislar poetikasini o'rganish;

Tadqiqotning obekti sifatida Amiriyning 2017-yil nashr qilingan "Devon (I jild, o'zbekcha she'rlar)"i, Feruz, Munis, Ogahiy, Rojiy, Avaz, Tabibiy, Otaniyoz Niyoziy va Komil Xorazmiy devonlari olindi.

Tadqiqotning predmetini Amiriyning o'zbekcha devonidan o'rin olgan she'rlarni Xorazm shoirlari ijodiga qiyosiy o'rganish asosida yuzaga kelgan o'zaro ta'sir va izdoshlik, shuningdek, adabiy an'ana, o'ziga xoslik va mahorat masalalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda sotsilogik, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, kontekstual, germeneytik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Amiriyning Xorazm adabiy muhitiga ta'siri masalasi birinchi marotaba monografik tadqiq etilgan. Amiriy va Feruz davri adabiy muhitining mushtarak va o'ziga xos jihatlar aniqlangan;

Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Feruz, Tabibiy, Otaniyoz Niyoziy, Avaz, Komil Xorazmiy, Rojiy kabi shoirlari mavzuga murojaat, obrazlar tabiati, tuyg'ular ifodasi jihatidan Amiriy she'riyatidan ta'sirlangani asoslangan;

Amiriy g'azallariga tatabbular, asosan, qofiyada yangilik qilishga intilish, ijodkor uslubi, dunyoqarashi, badiiy ifoda vositalariga yaqinlashish aniqlangan;

Xorazm shoirlarining Amiriy g'azallariga bog'lagan taxmisleri o'zi bog'lanayotgan g'azal baytidagi fikrga zamin hozirlash, rivojlantirish, sababini ochish va yangi qirrasiga e'tibor qaratish kabi vazifalarni bajarganligi, kiritilgan misralar lirik qahramonning ruhiy holatini yanada kengroq va to'laroq ochishga xizmat qilganligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, germeneytik tahlil usullari bilan asoslangani, ishonchli nazariy manbalar, qo'lyozma, toshbosma kitoblar hamda lug'atlardan foydalangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiyotshunosligi tarixiga oid nazariy qarashlarni boyitishi, xususan, adabiy an'ana, adabiy ta'sirlanish va ta'sir ko'rsatish masalasining badiiy ijod rivojidadagi o'rnini belgilashga hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalarining magistratura va bakalavriat yo'nalishlari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi", "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi", "Adabiyot nazariyasi" fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'lanmalarining yangi avlodini yaratishda, ilmiy ma'ruzalar, tanlov fanlarini o'tishda, milliy va ma'naviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish bo'yicha tayyorlanadigan ma'ruzalarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amiriy va Xorazm adabiy muhitini o'rganish jarayonida erishilgan ilmiy xulosalarning joriylanishi quyidagilarda ko'rinadi:

Amiriyning Xorazm adabiy muhitiga ta'siri masalasi birinchi marotaba monografik tadqiq etilganligi, Amiriy va Feruz davri adabiy muhitiga xos mushtarak va o'ziga xos jihatlar aniqlanganligi asoslangan o'rinlardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 4-yanvarda tasdiqlangan Ma'naviyat-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining V yo'nalishida belgilangan "Madaniyat, san'at, teatr, muzey, kitobxonlik va ijod sohalarini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar" 40-bandi "Mamlakatimizda iste'dodli yoshlarni aniqlash, ijodiy intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ularning Ona Vatanni madh etuvchi, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi, yaratuvchanlik va bunyodkorlikni ulug'lovchi badiiy ijod namunalarini keng kitobxonlarga tanishtirish va rag'batlantirish maqsadida "Eng yaxshi she'riy turkum", "Eng yaxshi nasriy asar", "Eng yaxshi esse" va "Eng yaxshi ertaklar turkumi" nominatsiyalari bo'yicha ijodiy tanlov o'tkazish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 19-noyabrdagi №10/769-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, anjumanning ilmiy-ma'rifiy jihatdan saviyasining yuksalishiga, badiiy adabiyotning inson kamolotini ta'minlashdagi ahamiyatini ochib berishga erishilgan;

Xorazm adabiy muhitining Munis, Ogahiy, Feruz, Tabibiy, Otaniyoz Niyoziy, Avaz, Komil Xorazmiy, Rojjiy kabi shoirlari mavzuga murojaat, obrazlar tabiati, tuyg'ular ifodasi jihatidan Amiriy she'riyatidan ta'sirlanganligi asoslangan va tahlil qilingan o'rinlaridan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish"

mavzusidagi loyihada foydalanilgan. (Qo‘qon universitetining 2025-yil 5-noyabrdagi №01/03-2081-sonli ma‘lumotnomasi). Buning natijasida platforma adabiy ta‘sir va izdoshlik masalalariga oid nazariy ma‘lumotlar bilan boyitilgan;

Amiriy g‘azallariga tatabbularda, asosan, qofiyada yangilik qilishga intilish, ijodkor uslubi, dunyoqarashi, badiiy ifoda vositalariga yaqinlashish aniqlanganligi aks etgan xulosalaridan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Adabiy tanqid kengashi hisobot yig‘ilishlarida, Erkin Vohidov, Ogahiy nomidagi ijod maktablarida o‘tgan adabiy kechalar, ijodiy uchrashuvlar va “mahorat darslari”da, Adiblar hiyobonida talabalar ishtirokida o‘tkazilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 18-noyabrdagi 01-03/418-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida yosh ijodkorlar va ilmiy izlanuvchilarning adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, xususan, adabiy muhitlararo ta‘sir masalalari bo‘yicha tushuncha va tasavvurlari kengaygan, ularda mumtoz milliy adabiyotga nisbatan to‘g‘ri yondashuv ko‘nikmalari rivojlangan;

Xorazm shoirlarining Amiriy g‘azallariga bog‘lagan taxmislari o‘zi bog‘lanayotgan g‘azal baytidagi fikrga zamin hozirlash, rivojlantirish, sababini ochish va yangi qirrasiga e‘tibor qaratish kabi vazifalarni bajarganligi, kiritilgan misralar lirik qahramonning ruhiy holatini yanada kengroq va to‘laroq ochishga xizmat qilganligi asoslangan o‘rinlaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston – 24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “G‘azal bo‘stoni”, “Ta‘lim va taraqqiyot” nomli dasturlari ssenariylarining 2022-2023-yil hamda 2024-yil yanvar va fevral oylari sonlarida foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining 2025-yil 14-noyabrdagi 05-09-1824-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu eshittirishlar Amiriy ijodida an‘ana va adabiy ta‘sirning o‘ziga xos ko‘rinishlari, ikki adabiy muhit vakillari ijodi orqali izdoshlikning turli shakllari yuzaga kelganligi haqidagi qimmatli ma‘lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari muallifning 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyalaridagi chiqishlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qo‘qon va Xorazm adabiy muhiti tarixi: shakllanishi va taraqqiyoti”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasl **“Qo‘qon va Xorazm xonliklarida adabiy jarayonlar”** deb ataladi. Adabiyot tarixini tadqiq etish ham ajdodlar merosini o‘rganish nuqtayi nazaridan, ham kelajak adabiyoti rivojini ta‘minlash zarurati jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni damda, ma‘lum adabiy muhitni o‘rganish shu adabiy muhit mansub milliy adabiyot taraqqiyotini o‘rganish, boshqa adabiy muhitlar bilan chog‘ishtirish, yangi adabiy muhit vakillarini kashf etishga ham yo‘l ochadi. Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan har uchala xonlikda hamisha ma‘lum ma‘noda adabiy harakatchilik hukm surgan. Ma‘lum davrlarda ularning adabiy muhit darajasiga ham ko‘tarila olganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Masalan, Amir Umarxon davrida (1810-1822) Qo‘qonda, Muhammad Rahimxon Feruz davrida (1863-1910) Xivada adabiy muhit gullab yashnadi. Umuman olganda, mazkur hududlarda ushbu hukmdorlar davridan oldin ham madaniy hayot, xususan, uning bir bo‘lagi sanalgan adabiy harakatchilik taraqqiy etganligini inkor etib bo‘lmaydi.

O‘zbek mumtoz adabiyotining tarixi va tadrijiy takomilida eng muhim jihatlaridan biri, shubhasiz – adabiy muhitlardir. Ma‘lumki, adabiy muhit muayyan hududda yashab ijod etgan yirik shoir va adiblar ta‘sirida yuzaga keladi. Adabiy muhitning vujudga kelishi, albatta, yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog‘liqdir. Jumladan, Hirot adabiy muhiti (Lutfiy, Navoiy, Jomiy va boshqalar), Qo‘qon adabiy muhiti (Amiriy, Nodira, Xon, Fazliy, Ado, Gulxaniy, Maxmur, Uvaysiy, Mahzuna, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqalar), Buxoro adabiy muhiti (Ubaydiy, Xoja, Muhammad Solih, Aziziy, Farog‘iy, Ojiz va boshqalar) yirik shoirlar faoliyati, ijodiy ta‘sirida yuzaga kelgan.

Xorazm juda qadim zamonlardayoq ilm-fan va madaniyat rivojlangan mamlakat sifatida Misr, Bobil, Iroq, Eron, Hindiston, Qadimgi Yunoniston va Rim mamlakatlari qatorida turgan. Bu haqida etnograf olim S.R.Tolstov “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” asarida shunday yozadi: “Qadimgi Xorazm fanining Sharq fani tarixidagi o‘rni juda muhimdir. Biz Xorazmning Islomga qadar bo‘lgan, ya‘ni antik va afrig‘iylar hukmronligi davrini juda oz bilamiz. Ammo moddiy va ma‘naviy yodgorliklarni har tomonlama tekshirgach ayta olamizki, Xorazmda aniq fanlar: riyoziyot, handasa, trigonometriya, astronomiya, torografiya, jug‘rofiya, kimyo, mineralogiya va san‘at o‘sha davrlardayoq yuksak darajada taraqqiy etgan”⁵. Darhaqiqat, Xorazm zaminidan yetishib chiqqan ko‘plab allomalar jahon ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shdi.

XIII–XIV asrlarda Xorazmda boshqa sohalar qatorida, adabiyot, xususan, she‘riyat yuksak darajada rivoj topdi. Lirik turning ko‘plab janrlari qatorida ruboiy janri o‘zining takomiliga erishib bordi. She‘riyatning ushbu yo‘nalishida muvaffaqiyatga erishgan shoirlardan biri, shubhasiz, Pahlavon Mahmud edi. Xorazmda tarjimachilik va tarixnavislik ham rivoj topdi. Muhammad Rahimxon

⁵ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 16.

Soniy Feruz davriga kelib to‘la ma’noda Xorazm adabiy muhiti shakllandi. Aynan mana shu bosqichda Xorazm adabiy muhitining darg‘alaridan bo‘lgan Munis, Ogahiy va Komil Xorazmiy singari qalam ahlari hamda ularning munosib davomchilari sifatida adabiyot maydoniga kirib kelgan Chokar, Mutrib, Ahmad Tabibiy, Abdurazzoq Faqiriy, Muhammadrasul Mirzo, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ilyos Mulla Muhammad o‘g‘li So‘fi, Avaz O‘tar o‘g‘li, Safo Mug‘anniy, Komiljon Devoniy, Muhammad Rahim Rog‘ib kabi iste’dod sohiblari adabiyot maydoniga chiqdi. Uzoq asrlik madaniy hayotdagi o‘zgarishlar, o‘z navbatida, qaysidir ma’rifatparvar hukmdorning davriga kelib to‘la ma’noda bo‘y ko‘rsatadi. Bu holatni istalgan adabiy muhitning shakllanishida bevosita ko‘rish mumkin. Chunonchi, Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi ham Amir Umarxonga qadar bir qadar uzoq davrlarni bosib o‘tdi-ki, uning ilk kurtaklarini bevosita Qo‘qon xonligining tashkil etilgan ilk davrlari bilan bog‘lash mumkin. Qo‘qon xonligining asoschisi Shohruhbiy davri (1709-1721)dayoq ijodkor ahliga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, mamlakat hududi, xususan, saroyda bir qancha shoirlar mavjud bo‘lgan. Mirzo Ma’sum Kosoniy saroy shoiri lavozimida ishlagan. uning Shohruhbiy va Abdulkarimbiylarning vafotiga atab yozgan ta’rix-marsiyalari bizgacha yetib kelgan:

اگر خاهی خصلی صالی فوتی شاهروخ سولتان،
شود روشن زی نقدی شاهروخ بیک بیکمو نوقسان.

*Agar xohe xusuli soli favti Shohruh sulton,
Shavad ravshan zi naqdi Shohruhbek bekam-u nuqson.*

Tarjimasi:

*Agar Shohruh sultonning vafot etgan yilini bilmoqchi bo‘lsang,
(U) bekam-u nuqson Shohruhbekdan ma’lum bo‘ladi!*⁶

“Shohruhbek” (شاهروخ بیک) so‘zida tarix yuzaga keltirilgan bo‘lib, undan hukmdorning vafot yili (hijriy 1128/milodiy 1721) kelib chiqadi.

Erdonabiyning hukmronlik davrida Mirza Sho‘xiy shoirlarga boshchilik qilgan. Abdulkarimxon saroyida esa Eshon, domulla Olim Konibodomiy, domulla Valiy Xo‘jandiylar faoliyat yuritgan.

Minglar sulolasi hukmron doiralaridan biri – Norbo‘tabiy (1770-1798/1799) ning o‘g‘li Muhammad Amin shahzodalikdan tashqari shoir ham bo‘lib, o‘z atrofiga bir necha shoirlarni yig‘gan va adabiy bazmlar uyushtirgan. Adabiy majlislarning birida shahzoda o‘z davrining “malik ush-shuaro”si Nusratga qarata shunday degan:

به گردی شم چون قونغز بود پروانه پروانه
*Ba girdi sham chun qo‘ng‘iz buvad parvona-parvona
(Shamning atrofida qo‘ng‘iz shunchalik parvona bo‘ldi).*

Bunga javoban Nusrat quyidagicha javob bergan:

سرت گردم تریقه دلنوازی یاد گر از شم
*Sarat gardam, tariqa dilnavozi yod gir az sham
(Boshingdin aylanay, dilnavozlik yo‘lini shamdan o‘rgangin)*⁷.

⁶Мирза Олим Хўқандий ибн Мирза Раҳим Тошқандий. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ Қўлғезмалар институти. №1314, 9-“а” саҳифа.

⁷Мирза Муҳаммад Амин домулло. Тухфат ут-таворихи хоний. № ЛБ 440, 84-“а” саҳифа.

O‘rnida bildirilgan javobdan xushnud bo‘lgan Muhammad Amin shoirga ellik arava g‘alla tuhfa qilgan. O‘z davri zamondoshlari bo‘lgan shoirlarni bir joyga yig‘ib katta bir adabiy muhitni shakllantirishni niyat qilgan Muhammad Amin hijriy 1212/milodiy 1797-1798-yili vafot etadi va uning maqsadi oxiriga yetmay qoladi. Keyinroq uning ezgu o‘ylari ukasi – Umarxon (Amiriy) tomonidan amalga oshirildi. Umarxon Qunduz, Balx, Hisor, Hirot kabi turli shaharlardan shoirlarni poytaxt Qo‘qon shahrida to‘plab, katta bir adabiy muhitni yuzaga keltirdi. Abdurauf Fitrat aytganidek: “Ashtarxoniylarning so‘ng davrlarida istiqloq olg‘an Farg‘onada ham Olimxon va Umarxonlar zamonida adabiyot yangidan bosh ko‘tardi. Ayniqsa, Umarxon zamonida saroy atrofida bir ko‘b shoirlar yig‘ildilar”⁸.

Qo‘qon va Xiva xonliklaridagi adabiy jarayonlar – Markaziy Osiyo madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan davr bo‘lib, bu xonliklarda XVIII-XIX asrlarda adabiyot sezilarli darajada rivoj tordi. Har ikki xonlikda ham adabiy muhit hukmdorlar homiyligida shakllangan, ko‘plab iste‘dodli shoir va yozuvchilar etishib chiqdi. Har ikki adabiy muhitda klassik uslubga tayanilgan va xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashgan.

Bobning ikkinchi fasli **“Amiriy va Feruzning madaniy hayotdagi o‘rni”** deb nomlanadi.

Amiriy davrida Qo‘qon xonligida ko‘plab sohalar rivoj topdi. Me‘morchilikning go‘zal namunalari barpo etildi. Chunonchi, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Andijon kabi yirik shaharlarda madrasa, masjid, xonaqoh, bozor, hammomlar qurildi. Jumladan, Qo‘qonda 40 ta madrasa, 120 ta maktab, Marg‘ilonda 10 madrasa, 80 ta maktab bo‘lgan⁹. Boshlang‘ich ta‘lim beruvchi oddiy uslubdagi maktablar esa xonlik davrida deyarli barcha masjidlar qoshida ishlab turgan.

Amir Umarxon hunarmandchilikning deyarli barcha sohalarini rivojlantirishga e‘tibor qaratdi. Qo‘qon hunarmandchiligi dovrug‘ini oshirgan sohalardan biri qog‘ozsozlik edi. Qo‘qon qog‘ozi butun Markaziy Osiyo shaharlarida o‘zining sifati bilan nom qozondi¹⁰. Qo‘qonda xattotlik san‘ati ham rivojlangan. Muhammad Latif Dabir, Abdulg‘ozixoja, Mirzo Sharif Dabir, Mulla Ahmadjon kabi xattotlarning kitob ko‘chirish borasida o‘zlari amalga oshirishgan xayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi¹¹. Ularning yana bir xususiyati shunda ediki, Qo‘qon xattotlarning ko‘pchiligi ham shoir, ham tarixchi, ham miniaturachi edi. Ular o‘z asarlari bilan Qo‘qon xattotlik kasbini milliy san‘at darajasigacha ko‘tardilar.

⁸ Абдурауф Фитрат. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш // Танланган асарлар. Иккинчи жилд (илмий асарлар). – Тошкент, 2000. – Б. 51.

⁹ Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 24.

¹⁰ Зияева Д.Х. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонда анъанавий таълим тизими муаммолари // Тошкент Ислон университети илмий-таҳлилий ахборот, 2009. №3. – Б. 10-12.

¹¹ Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 17.

Qo‘qon xonligida xalq professional musiqasi janriga kiruvchi “Shoshmaqom”ning Farg‘ona-Toshkent yo‘llari va ayniqsa katta ashula keng tarqalgan¹².

Umarxon buyrug‘i bilan ko‘plab ariq-anhorlar qaziladi, natijada dehqonchilik ravnaq topadi, oziq-ovqat mahsulotlari ko‘payib, narx-navo birmuncha arzonlashadi. Shu tariqa, Mulla Olim Maxdum Hojining yozishisha, Umarxon “...andak fursatda hamma ahli Farg‘onaning ko‘nglini o‘ziga jazb va musaxxar qilib, eski va qadimgi bid‘at va zulmlarg‘a, shar‘i sharif man’ qilgan ishlarga mutlaqo barham berubdur”¹³.

“O‘rta Osiyodagi boshqa xonliklarda bo‘lgani kabi Qo‘qon xonligida madaniy va adabiy hayotda bu davrda jonlanish ancha kuchli edi. Xiva xonligi, Buxoro amirligi yerlarida ham adabiy hayot bir muncha rivojlangan bo‘lib, ularni mavzu uyg‘unligi, umuman, adabiyotda yetakchi tamoyillar bir-biriga yaqinlashtirib turar edi. Qo‘qonda O‘rta Osiyoning boshqa shaharlaridan kelgan shoirlar ham yashab ijod etganlar. Bular o‘rtasida davr ilg‘or adabiyotining faol ishtirokchilari va keyincha adabiyotimizning faxri bo‘lib qolgan Hoziq, Gulxaniy va boshqalar ham bor edi. Qo‘qon XVIII asrning oxiri – XIX asr boshlarida Nodira, Uvaysiy va Mahzuna kabi shoiralarga ham vatan bo‘ldi. Ana shu davr adabiy hayotida Amiriyning ham ishtiroki sezilarli edi”¹⁴.

Muhammad Rahimxon Feruz ham o‘zbek adabiyoti tarixida ham shoh, ham shoirlik taqdiriga sazovor bo‘lgan siymolar qatoridan o‘rin olgan. Har ikki hukmdorga xos umumiy xislatlar davlat ishlari bilan band bo‘lganlari holda, adabiyot va san‘at rivojini tashkil va ta‘min etishda, ham amaliy, ham ijodiy ishlari bilan o‘z davri adabiyoti taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iboratdir. Muhammad Rahimxon II Xiva taxtida 46 yil hukmronlik qildi. Shu yillar davomida u Xorazmda ilm va fan, madaniyat va adabiyot yuksalishiga samarali ta‘sir ko‘rsatdi, U ham Amiriy singari atrofiga iqtidorli shoirlar, muarrixlar, mutarjimlar, ilmning turli sohalariga oid mutaxassislar, kotiblar, naqqoshlarni, bir so‘z bilan aytganda, o‘z davrining yetuk vakillarini, san‘atkorlarini to‘plab, ularga homiylik qildi. Ijodiy yuksalishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berdi. Uning saroyida qirqqa yaqin shoirlar bo‘lib, ular bilan mushoiralar, bahslar o‘tkazdi. Xon saroyida iste‘dodli shoir Tabibiy ijod ahliga yetakchilik qildi. Feruzning farmoyishi bilan eng iqtidorli shoirlarning she‘rlari to‘planib, «Majmuat-ush shuaro» to‘plami tuzildi va toshbosmada nashr etildi. Saroyda adabiy muhitni maydonga keltira olgan Muhammad Rahimxon Soniy – Feruzni O‘rta Osiyo xonlari orasida eng ziyolisi va ma‘rifatparvari sifatida Amir Umarxon – Amiriy bilan bir qatorda sanash mumkin. Feruz o‘ziga qadar o‘tgan hukmdorlar ichida eng ko‘p muddat xonlik qilgan va o‘zidan keyin yaxshi nom qoldirgan hukmdorlardan biridir. Bu davrda Xorazm o‘lkasida juda ko‘plab o‘zgarish, yangilanishlar ro‘y berdi. Bu haqida tarixnavis Hasanmurod Laffasiy shoh va shoir Feruz zamonida ko‘plab madrasalar qurilgani, matbaachilik yo‘lga qo‘yilgani, kitobxonlik avj olgani,

¹² Исабоева Г.С. XIX асрда Қўқон хонлигида маданий ҳаёт. Тарих фан. номз. дисс. ...автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2010. – Б. 14.

¹³ Мулла Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Қарши: Насаф, 1992. – Б. 37.

¹⁴ Қодирова М. Аморий // Адабий мерос, 2 - китоб. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 104.

xonning o‘zi bularning barchasiga boshchilik qilgani haqida ma’lumot beradi: “Feruzning huzurinda doimiy yetti-sakkiz nafar go‘yandalar soz, tambur, g‘ijjak, bulamon mashq etib o‘ltiradurlar. Masalan: Muhammad Yoqub devon va Muhammad Yoqub rozachi, Avaz dorchi kabilar”¹⁵. Bayoniy esa: “Xon hazratlari haftada ikki kun juma va dushanba oqshomlari ulamo bilan suhbat tuzib, kitobxonlik etturur erdilar, ...sipohiylar va to‘ralarni ham kitobxonlikka targ‘ib etar edilar. Bas hamma kitobxon bo‘ldilar”¹⁶, deb yozgan edi.

Feruz davri tom ma’nodan Xorazm bayozchilik maktabining shakllanish davri bo‘ldi. Adabiyotshunos Yo.Is’hoqovning “Bayoz va bayozchilik tarixi” maqolasi bayozlar va ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, o‘ziga xos xususiyatlari, manbalari hamda bayozchilik maktablari haqida nisbatan to‘liq va ilmiy jihatdan puxta ma’lumot beradi¹⁷.

Bu davrda Xiva adabiy muhitida xattotlik ham yuksak darajada rivojlangan edi. Muhammad Rahimxon davrida Komil boshchiligida ellikka yaqin xattotlar yetishib chiqqan¹⁸. Nodir kitob nusxalarini ko‘paytirish, ularni saqlash, kitob nashri-matbaachilikka e’tibor qaratilib, toshbosma usulida kitob chop etish maqsadida “Podshohi zamon tipolotografiyasi”ni tashkil qilgan¹⁹.

Bu ikki adabiy muhitning o‘zaro bir-biriga yaqinligiga ta’sir etgan omillardan yana biri, har ikki muhit namoyandalari ijodiga Fuzuliy ijodining kuchli ta’sir etganligi, shoirlar ijodida fuzuliyona ohangning ustuvorlik qilishidir.

“XIX asrda Qo‘qonda bevosita Amir Umarxon – Amiriy, Xivada Muhammad Rahimxon – Feruz tashabbusi bilan madaniy-ma’rifiy, adabiy muhit yuzaga keldi va bu jarayon boshqa hukmdorlarga ibrat bo‘lgudek darajada iz qoldirdi. Tarix va arxiv haqiqati XIX asr Xiva va Qo‘qon xonligida nisbatan progressivroq madaniy va adabiy hayot hukm surgani, natijada bir qancha iqtidorli shoir-u ulamolar yetishib chiqqani, xalqimizga bebaho ma’naviy meros qoldirilganligini ko‘rsatadi”²⁰.

Ikkinchi bob “ Adabiy ta’sir va izdoshlik masalalari” deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi fasli **“Adabiyotshunoslikda adabiy ta’sir va izdoshlik masalalarining o‘rganilishi”** deb ataladi. “An’anaviylik – Sharq adabiyotining o‘ziga xos xususiyati va harakat yo‘li, unda umumiy o‘xshashlik va takror ham, yangilik va kashfiyot ham bor. Shoirning maqsad va intilishlari, erishgan natija va muvoffaqqiyatlari goho bir-biriga g‘oyatda monand”²¹. Darhaqiqat, ilg‘or dunyoqarash, yangi salmoqli tafakkur, fikr ta’siri, ifodalar hosilasi – ijodiy o‘ziga xoslik ushbu monandlik bag‘rida tug‘iladi. Mana shu uzviylikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri adabiy ta’sir hisoblanadi. Adabiy ta’sir – adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo‘lgan va badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisadir. Adabiy ta’sir adabiy-badiiy hodisalarning

¹⁵ Лаффасий. Тазкирайи шуаро. – Урганч: Хоразм, 1992. – Б. 25.

¹⁶ Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 179.

¹⁷ Исҳоқов Ё. Баёз ва баёзчилик тарихи / Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. – Тошкент, 1976. – Б. 78.

¹⁸ Юнусов М. Саҳий қаламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б. 94.

¹⁹ Мурадов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 117.

²⁰ Халлиева Г. Амирий ва XIX аср Хоразм адабий муҳити асосчиси // “Амирий ва Қўқон адабий муҳити” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 117.

²¹ Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва Огаҳий шеърляри // Ўзбек тили ва адабиёти, 2019. №6. – Б.6.

makon va zamondan qat'iy nazar o'zaro aloqada yashashi oqibatida yuzaga keladi. Qolaversa, an'ana yashovchan adabiy hodisa bo'lib, uning asosida mushtaraklik va o'ziga xoslik munosabati mujassamdir. Bu ikki jihatning mavqeini bab-baravar e'tirof etgan holda aytish mumkinki, asar mohiyati va ijodkor mahoratini o'ziga xoslik, betakrorlik belgilaydi²². Har qanday ijodkor faoliyatining ilk bosqichida salaflarning muayyan ta'siri mavjudki, bu o'sha ijodkorning shakllanishida, uning o'z yo'li va uslubiy o'ziga xosligiga ega bo'lishida muhim ahamiyatga egadir.

Jahon adabiyotshunoslaridan A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, N.I.Konrad, I.G.Neupokoeva, A.N.Samoylovich, Ye.E.Bertels; major olimi Yanosh Ekman, turk olimi Ahmad Zaki Validiy To'g'on tadqiqotlarida adabiy ta'sir va ijodiy o'ziga xoslik masalalari keng yoritilgan²³.

O'zbek adabiyotshunosligida ham adabiy ta'sir va izdoshlik masalalari, shuningdek, Amiriy hayoti, faoliyati va ijodi yuzasidan turli darajadagi izlanishlar olib borilgan. Xususan, XX asrda Sadridin Ayniy²⁴, Abdurauf Fitrat²⁵, Vadud Mahmud²⁶, Miyon Buzruk Solihov²⁷, O.Sharafiddinov²⁸, Po'lotjon Qayyumov, A.Qayumov²⁹ kabi olimlar zullisonayn shoir tarjimai holi, u mansub adabiy muhit hamda turkiy va forsiy merosini u yoki bu darajada o'rgangan bo'lsalar, asr oxiriga kelib adabiyotshunoslikda amiriyshunoslik sahifasi Zeboxon Qobilova tadqiqotlari bilan yanada kengaydi, olima badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik masalasini maxsus tekshirdi³⁰.

Ijodda boshqalardan ilhomlanishning bir qancha turlari mavjud va ularning chegaralarini qat'iy ravishda belgilash ko'p qiyinchiliklarni tug'diradi. Shu sababdan, badiiy ijodda ta'sirlanish turlari haqida turli tasniflar mavjud bo'lib, ular haqidagi ta'riflar ba'zan bir-birini inkor ham qiladi. Bu borada adabiyotshunos Z.B.Qobilovanning tasnifi har jihatdan asosli hisoblanadi. Olima izdoshlikning ikki guruhi haqida to'xtalib, badiiy ijodda ijobiy ma'nodagi ta'sirlanish turlari hamda ta'sirlanishning salbiy baho beriladigan shakllari xususida ma'lumot beradi. Olima ijobiy ma'nodagi ta'sirlanish turlariga oid atamalar va istilohlar sifatida *nazira*,

²² Гойилов Д. Огахийнинг бадийи маҳорати. Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.18.

²³ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989.; Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979; Жирмунский В.М. Историческая поэтика А.Н.Веселовского и её источники. – Ученые записки ЛГУ. Сер. филол. наук. 1939. Вып. – №3. – С. 3-19.; Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и театр. – М.: Наука, 1978.; Неупокоева И.Г. История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа. – М., 1976; Самойлович А.Н. Иранский эпос в литературе тюркских народов Средней Азии // Сб. “Фирдоуси”. – Л.: ИВАН и Гос.Е., 1934; Самойлович А.Н. Собрание 30 Царских поэтов сопутствующих Ферузу Хива. 1909 // ЗВОРАО. – СПб., Т.19 (1909). вып. 4-С. 0198-0209; Самойлович А.Н. Турецкие этюды. – РНБ., Ф.671, эд.хр. 100.-872 лл.; Бертельс Э.Е. Избранные труды. Навои и Джамии. – М.:Наука,1965.; Janos Эckmann. Harezmi, kipcak ve sagatay turkcesi uzerine arastirmalar. – Ankara, 1996. – С. 232.; A.Zeki Velidi Togan. Bugunku Turkili: Turkistan ve yakin tarihi. – Istanbul, 1981. – С. 501.

²⁴ Қаранг: Намунаи адабиёти тоҷик. Жамъ кунанда: Садриддин Айний. – М., 1926. – С. 195–197.

²⁵ Қаранг: Фитрат А. Танланган асарлар. II жилд (Илмий асарлар). – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 59-60.

²⁶ Ваҳмуд Маҳмуд. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 84-90.

²⁷ Миён Бузрук. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. 1-қисм. Тошкент: Ўзнашр, 1930. – Б. 74-86.

²⁸ Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. XV–XIX асрлар. Олий педагогика ўқув юртлари учун. Тузувчи О.Шарафиддинов. – Тошкент, 1945. – Б. 179–190.

²⁹ Қаюмов П. Тазкираи Қаюмий. – Тошкент, 1998. – Б. 107–111.

³⁰ Қобилова З.Б. Бадийи ижодда таъсир ва издoshлик масалалари (Амирий шеърятини мисолида). Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – Б. 19.

tatabbu, tavr, tavorud, tazminni, ta'sirlanishning salbiy holatlari sifatida esa sirqa, intihol, nasx, masx, salx, ilmom, musolita, ig'orot kabi turlarini keltirib o'tadi va fikrlarini davom ettirib, ilmi balog'at qoidalari va she'riyatning amaliy tajribalariga ko'ra, tavorud, tazmin, nazira, tatabbu, tavr kabi adabiy hodisalar an'anaviylik doirasidagi novatorlik jarayonini kuchaytirsam, ilmom, intihol, sirqa, nasx, masx kabi tushunchalar bilan qayd qilingan holatlar badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga faqat ziyon yetkazishi haqida to'xtaladi³¹.

Adabiy ta'sir, mutaxassislar fikriga ko'ra, quyidagi omillar asosida maydonga keladi: ikki yoki undan ortiq xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy, adabiy aloqalar vositasida; adabiyotlar o'rtasidagi qondoshlik, muayyan genetik bog'lanish, ma'lum etnosga mansublik asosida (masalan, qardosh xalqlar adabiyoti); adabiy ta'sir keng ko'lamlil va ko'p bosqichli bo'lishi, butun boshli adabiy davrni tashkil etishi mumkin (masala, J.J.Russo va J.G.Bayron mansub adabiy oqimlarning A.Pushkin, M.Lermontov, L.Tolstoylarga ta'siri); yozuvchilar o'rtasidagi adabiy aloqaning bir turi. Bir yozuvchida mavjud syujet, obraz, mashhur motivlar yoki badiiy g'oyalardan boshqa yozuvchining foydalanishi kabilar³².

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "**Amiriy ijodining Xorazm shoirlariga ta'sir ko'lami**" deb nomlanadi. Amiriy she'riyati saviyasining balandligi, xalqchilligi va ommaviyligi, shuningdek, o'z davri va o'zidan keyingi davr adabiy muhiti vakillarini milliy va estetik ruhga ilhomlantira olganligi qalam ahlini ustozlari asarlarini har tomonlama keng va chuqur mutolaa qilib, undan mahorat sirlarini o'rganib, g'azallariga tatabbular qilishga, taxmislar bog'lashga sabab bo'lgan. Shoh-shoir g'azallari qo'ldan-qo'lga o'tib o'qilgan va zamon ijodkorlariga ilhom bag'ishlagan. Buni "mavzun" radifli g'azali maqta'sida Amiriyning o'zi ham faxr-u iftixor bilan e'tirof etadi:

*Bu g'azal bo'ldi Xo'jand ahlig'a mashhur, Amir,
Qildi taslim ango Ravnaqu Mirzo mavzun*³³

Amiriyning so'zga munosabati, so'z tanlash mahorati alohida diqqatga sazovor. U xalqona so'z va iboralardan mahorat bilan foydalanadi. Bu shoir she'rlarining chuqur samimiyati va xalqchilligini ta'minlagan asosiy omillardan hisoblanadi. Shuning bilan birga uning she'rlarida o'sha davr jonli tilida ishlatilmagan yoki tor doiradagina ishlatilgan, eski o'zbek tili (Navoiy tili)ga xos bo'lgan so'zlarga ham duch kelamiz (qamug', o'kush va hokazo). Ushbu so'zlar adabiy an'ana doirasida, ziyolilar va madrasa muhitida iste'molda bo'lgan bo'lib, ulardan she'riy matnda istifoda etish she'rning aynan shu ijtimoiy qatlam uchun mo'ljallab yozilganligini ko'rsatadi. Bu hol Amiriyning faqat ayrim she'rlarida namoyon bo'lib, umuman olganda, uning she'riyati ham keng kitobxonlar ommasini, ham yuqori saviyali xos o'quvchilar badiiy-estetik zavq olishlari mumkin bo'lgan asarlardir. Shuningdek, Amiriy o'zbek she'riyatining radiflar zahirasini ham boyitgan. Quyidagi jadvalda ilk bor, faqat Amiriy qo'llagan radiflar aks etgan:

³¹ Кобилова З.Б. Бадий иждодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърияти мисолида). Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – Б. 19.

³² Sherqulov S.K. Qiyosiy adabiyotshunoslikda adabiy ta'sir masalalari // "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy oflayn-onlayn anjumani materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 492.

³³ Амирий. Девон. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 278. Bundan keyin mazkur manbadan she'r olinganda sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

1-jadval

№							
1.	“xay-xay”	31	do‘ndurmish	62	oshiq bo‘lon	93	xavas etmas
2.	amir	32	dushmandur	63	pari	94	qo‘zg‘olmasun
3.	andisha qil	33	el chekduk	64	qadrini	95	uchradi nogoh
4.	anor	34	eli	65	qani	96	ustidadur
5.	aylagon	35	erur ahsan	66	mendan o‘rgandi	97	qosh
6.	aylamay naylay	36	ey qumri	67	mijgoning	98	qoshlaring
7.	aylansun	37	falak	68	mijgonlaring	99	qurboning
8.	aylay bukun	38	g‘alat	69	muborak	100	rashk
9.	ayrilmasun	39	gulnor	70	mujdasi	101	sadqasi
10.	aytadi	40	halqasi	71	mukarrar	102	sahar
11.	ayting	41	harir	72	mushkul	103	sallamno
12.	bale	42	havo	73	muzmar	104	sango
13.	band	43	istig‘nosi bor	74	nadur	105	chirin
14.	bandadur	44	kamaring	75	nay	106	chohim
15.	bebok	45	kam-kam	76	nechuk qilsun	107	sizmusiz
16.	bexabar	46	karam etdung	77	nogoh	108	sog‘indim
17.	bezobita etti	47	kechasi	78	o‘ldi o‘xshaydur	109	ta‘ma
18.	bilmay	48	keltur	79	o‘lg‘ay	110	tabranib
19.	biri	49	kiprik	80	o‘lmas	111	tahsin
20.	bor ekan	50	ko‘rguzing	81	xizimating	112	topti jon
21.	bormukun	51	ko‘rmadim	82	o‘lturgudek	113	tamosho
22.	boyistiy	52	kokul	83	o‘lturur	114	tamosho qil
23.	chekma	53	kul	84	o‘rgulsun	115	tarab
24.	chekon	54	kuydurma	85	o‘shal	116	tarog‘
25.	dasta-dasta	55	lutf	86	xo‘p bo‘ldi	117	tasadduq
26.	demas	56	maning	87	o‘xshattim	118	taslim
27.	dermishlar	57	mavzun	88	o‘xshotma	119	tikmagil
28.	do‘ndurdi	58	qarou qirmiz	89	o‘ynamoq	120	toj
29.	yoning	59	qildi soz	90	oh	121	tong otguncha
30.	zeb	60	qilon	91	oshiq bo‘lmisham	122	topdim
31.	qiyg‘och	61	xofiz	92	xush kelding	123	yod ettim

“Amir Umarxon Qo‘qon adabiy muhitida boshlab bergan an‘analar Xorazm adabiy muhitida davom ettirilgan. Shoh va shoir Muhammad Rahimxon II – Feruz ham Amir Umarxon singari saroyini o‘ziga xos ilmiy-ma‘rifiy markazga aylantirgan, shoir-u olimlarga homiylik qilgan Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy” nomi bilan mashhur tazkirasi (1908), Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro” asaridan ilhomlanib, Feruz topshirig‘iga

binoan yaratilgan. Adabiyotshunos U.Dolimov Feruz ijodiga bag'ishlangan maqolasida uning Fazliy tazkirasi orqali Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodi bilan yaxshi tanish bo'lgani, Amiriyning "Lab uyur takallumg'a, zulfni parishon qil" matla'li g'azali Feruzda chuqur taassurot uyg'otgani, natijada u she'rning vazni, qofiyasi, radifi va mavzusini saqlagan holda unga nazira bitgani haqida ma'lum qiladi"³⁴.

Darhaqiqat, "Xorazmlik shoirlar Amiriyning devonini sevib mutolaa qilib, ham turkiy, ham forsiy g'azallariga tatabbular qilganlar, taxmislar bog'laganlar"³⁵. Jumladan, Ogahiy, Komil, Bayoniy, Tabibiy, Avaz, Rojii, Niyoziy kabi shoirlar Amiriydan ilhomlanib, go'zal she'rlar bitganlar.

Xorazm shoirlari orasida Amiriyning "qil", "muborak", "sallamno", "sizmusiz", "aylansun", "ko'rung" radifli g'azallari juda mashhur bo'lib, bu g'azal ta'sirida o'nlab yangi va yaxshi asarlar maydonga kelgan. Shuningdek, shoirlar Amiriyning qator g'azallaridagi shohbaytlarga ham o'xshatmalar qilgan, mazmunni saqlagan holda betakror baytlar yaratganlar.

Feruz ijodida Amiriyga xos ohanglarni his qilish mumkin. Aytaylik, Amiriy deyarli har bir g'azalida men ishq mulkining shohiman, amiriman, sultoniman deb lutf etadi va bu shoir g'azallarining o'ziga xos aniqlovchisiga aylangan:

*Ishq mulkining Amiriman, muhabbat zevarim,
Istaram to subhi mahshar yor vaslidin liqo (43)*

Bunday iboralarni Feruzda ham ko'ramiz. Chunki u ham egallagan mavqeyi jihatidan Amiriyga teng.

*Ishq eli shohiman, vale oshiqining qatorida,
Ushbu hazinin ul pari ko'ziga ilmadi, netay?*³⁶

Har ikki shoirda ham yor vaslidan umidvorlik aks etgan.

Ma'lumki, bir tilda yozilgan g'azalga ikkinchi tilda tatabbu qilish Sharq she'riyatida kam uchraydigan hodisa. Masalan, Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi mashhur "koshki" radifli g'azaliga Abdurahmon Jomiy forsiyda juda go'zal tatabbu qilgan. Amiriyning mazkur "qil" radifli g'azaliga o'zbek she'riyatida eng ko'p tatabbu qilingan. Shoir zamondoshlaridan Fazliy, Ado, Xijlat, Foni, Uvaysiy kabi qator shoirlar ham tatabbu qilganlar. Ogahiy esa "qil" radifli g'azalga "kun" radifli forscha tatabbu bitgan hamda taxmis bog'lagan.

Amiriy:

*Lab uyur takallumg'a, zulfni parishon qil!
Qand qiymatin sindur, narxi anbar arzon qil! (218)*

Ogahiy:

*Boz la'li shirin az suxan durafshon kun,
Qimati shakar bishkan, narxi gavhar arzon kun*³⁷.

Ko'rinib turibdiki, g'azal va tatabbuning matlallari o'zaro o'xshash: agar Amiriy "So'zga labingni ochib, sochlaringni yozib tashla, nutqingning shirinligi

³⁴ Халлиева Г. Амирий ва XIX аср Хоразм адабий муҳити асосчиси // "Амирий ва Қўқон адабий муҳити" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 117.

³⁵ Qobilova Z.B. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik. – Тошкент: Tamaddun, 2021. – В. 196.

³⁶ Мухаммад Раҳимхон Феруз. Элга шоҳ-у ишққа кул. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – В. 102.

³⁷ Мухаммад Ризо Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 596.

bilan qandning bahosini sindirib, mushk-u anbar narxini arzon (ya'ni bozorini kasod) qil!" – desa, Ogahiy unga qilgan tatabbusida "Shirin labingni yana so'z bilan bezat va bu bilan qandning bahosini tushirib, anbarning bozorini kasod qil!" – deydi.

"Oshiq bo'lmisham" radifli g'azal va muxammaslar dastlab Qo'qon adabiy muhiti shoirlari Amiriy, Uvaysiy, Mahzuna kabilar ijodida mashhur bo'lgan. Xiva adabiy muhitiga u, shubhasiz, Amiriy orqali kirib borgan. Chunki Uvaysiy yoki Mahzuna ijodi Xorazm elida mashhur bo'lmagan. Komil ham Amiriyning ramali musammani maqsur vaznidagi ayni radifli g'azaliga vazni va radifini saqlagan, lekin qofiya tizimini o'zgartirgan holda tatabbu qiladi:

*Ohkim, bir sarvi gulruxsora oshiq bo'lmisham,
Bemuruvvat qotili xunxora oshiq bo'lmisham*³⁸.

Aytish mumkinki, Xiva adabiy muhitida ham Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasi va Amiriy devoni keng tarqalib, Ogahiy, Komil, Tabibiy, Bayoniy, Avaz, Niyoziy kabi barcha shoirlarni o'z ta'sir doirasiga tortgan hamda ular shoh-shoir g'azallaridan ilhomlanib, ularga tatabbular qilganlar, taxmislar bog'laganlar, uning asarlari uslubi va ohangida she'rlar bitganlar.

Bobning uchinchi fasli "**Mushtaraklik va o'ziga xoslik (mavzuga murojaat, obrazlar tabiati, tuyg'ular ifodasi jihatidan)**" deb nomlanadi. "Amiriy devonidagi g'azallar mavzusiga ko'ra, asosan, oshiqona she'rlardan iborat. Ikkinchi o'rinda orifona va uchinchi o'rinda rindona she'rlari turadi. Lekin umumijodi misolida shoir asarlarini diniy, tasavvufiy, ishqiy va ma'viza she'rlarga ajratish mumkin. Uning she'riyatida deyarli hajv-satirani ko'rmaymiz. Ba'zi yengil hazilga asoslangan yumoristik ruhdagi baytlarga duch kelamiz. Shoh-shoir bo'lganligi uchunmi, shikoyat va hasrat motivlari ham uncha ko'zga tashlanmaydi. Ishqiy she'rlarida ham hijron azobidan ko'ra visol sururini ko'proq tarannum qilgan³⁹. Amiriy ijodi, garchand o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, uning she'riyati mumtoz an'anaviy timsol, obraz va mavzularning yangicha talqini bilan ajralib turadi. Bu, xususan, ishq, may mavzusi, pir, zohid, oshiq obrazlari, soch, sadaf, banogo'sh timsollari talqinida ko'rinadi.

"Muayyan bir yetuk asarga mazmun va shakl jihatdan mushtarak, lekin ayni paytda original xususiyatlarga ega bo'lgan, yangi va mustaqil asar"⁴⁰lar ham bo'ladi. Xorazm shoirlarining Amiriyga izdoshlik natijasida yaratgan she'rlarini ana shunday mustaqil asarlar sifatida baholash mumkin.

Xiva adabiy muhitining taniqli namoyandalaridan biri Niyoziy bo'lib, u Amiriyning "sallamno" radifli g'azaliga tatabbu bog'lar ekan, vazn va radifni saqlab qolib, qofiya tartibini o'zgartiradi. Tatabbuga asos bo'lgan g'azal hazaji musammani solim vaznida:

Dedi Yusuf ko'rub yorimni: "Jononingg'a sallamno!"

³⁸ Комил. Девон (Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б. 125.

³⁹ Qobilova Z.B. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B.196.

⁴⁰ Файзуллоев Б. Ўзбек шеърларида татаббуъ тарихи ва маҳорат масалалари. Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. 10.

Aning ishqig‘a toqat aylag‘an joningg‘a sallamno!” (44)

Tatabbu ham ayni vaznda:

Jamilo, fikrati farhatpadidoringg‘a sallamno,

Banogah ro‘yati rohatnamudoringg‘a sallamno⁴¹.

Amiriy g‘azali 11 baytdan iborat bo‘lsa, Niyoziyning unga tatabbusi 7 bayt hajmida. Lekin vazn va radifni aytmasa, bu ikki g‘azalda boshqa mushtaraklikni ko‘rmaymiz. Niyoziy ayni vazn va radifda butunlay yangi g‘azal yaratgan. Bu o‘ziga xoslik tatabbu maqtasidayoq namoyon bo‘lgan. G‘azal maqtasida Amiriy: “Husn-u malohat mazhari bo‘lgan Yusuf alayhissalom ham yorimning beqiyos ko‘rk-u jamoli oldida hayratda qolib: “E, jononingga qoyil! Shunday go‘zalning ishqiga toqati etgan joningga ming ofarin!” – dedi desa, Niyoziy: “Ey go‘zal, kishiga quvonch baxsh etuvchi fikrlaringga ofarin! Kutilmaganda namoyon bo‘lib, kishiga huzur hadya qiluvchi jamolingga tahsinlar bo‘lsin!” – deb ta‘riflaydi.

Amiriyning “Hushu xiradni berguvchi barbod sizmusiz? Qosh “yoy”i birla qilg‘uvchi bedod sizmusiz?” deb boshlanuvchi oshiqona g‘azaliga Feruz, Niyoziy, Avaz kabi shoirlar tatabbu bog‘lashgan. Har uch shoir ham tatabbuda g‘azalning mavzu, vazn va radifini saqlaydi, ammo qofiya tizimi o‘zgartirib, unga ijodiy jihatdan yondoshadi.

Dissertatsiyada Amiriyning “aylansun”, “et”, “ey, soqiy”, “muborak”, “qil”, “sallamno”, “oshiq bo‘lmisham”, “Evaz” radifli, shuningdek, “Kulbam sori gar kelsangiz...” misrasi bilan boshlanadigan turkiy, “Zi tobi boda to sham‘i jamolat ravshan ast imshab” va “Ba jon, ey gulbadan, hastam asiri sarvi boloyat” misralari bilan boshlanadigan forsiy g‘azallari asosida yaratilgan she‘rlar tahlil qilinib, mavzuga murojaat, obrazlar talqini va tuyg‘ular ifodasidagi mushtaraklik va o‘ziga xoslik masalasi aniqlangan.

Uchinchi bob “Amiriyga izdoshlikda badiiy mahorat masalalari” deb nomlanib, uning birinchi fasli **“Tatabbu – ilhom va mahorat samarasi”** deb atalgan. Tatabbunavislik adabiy jarayon va adabiy aloqalar taraqqiyoti, an‘ana, yangilik va mahorat masalalari bilan bog‘liq bo‘lib, uning vujudga kelishini adabiyotshunos B.Fayzulloyev o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatib o‘tgan⁴².

Tatabbu asarlarining yaratilishida mazmun va shakl unsurlari faol ishtirok etadi. Mavzu, vazn, qofiya va radif asosida javobiya yoki izdoshlik yuzaga keladi. Ayrim tatabbularda vazn yoki qofiya yangilanishi mumkin. Tatabbunavis shoir she‘rda ilgani surilgan g‘oya, obraz, tasviriy ifoda, janr kabilarga ham diqqat qaratib, o‘z asarida badiiylikni ta‘minlaydi. Ijodkor tatabbu asarda ularni yangilashi, yoki asos asardagiga nisbatan yangi qirralarini ochishi mumkin. Hatto shunday qilish shart hamdir. Chunki tatabbuda asos asardagi biz yuqorida sanab o‘tgan unsurlar aynan qaytarilsa taqlidga o‘xshab qoladi. Vaholanki, tatabbu fikriy faollikni, ijodkorlikni taqozo etadi. Zero, bu yaratilayotgan yangi asar birinchisini qaytarmagani holda, undan a‘lo darajadagi qiyoslar bilan ziynatlanishi kerak.

⁴¹Ғайипов Д. Отаниёз Ниёзий. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.28. Монографияга шоир шеърларидан намуналар ҳам илова қилинган. – Х.Р.

⁴²Бахтиёр Файзуллаев. Ўзбек адабиётида татаббу тарихи ва маҳорат масалалари. Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2002. – С. 161.

“Odatda, adabiy ta’sir to’g’risida gapirilganda, ikki narsaga jiddiy qaraladi. Bulardan biri – dunyoqarash, ya’ni g’oyaviy munosabatlar. Ikkinchisi va eng muhimi – badiiy mahorat”⁴³.

“Qo’qon adabiy muhitidagi kabi Xiva adabiy muhitida ham muayyan g’azalga ijodiy musobaqa tarzida bir necha shoirlar tatabbu yozib, o’zaro bellashganlar. Bir radifdagi g’azallar ko’plab shoirlar ijodida uchrashi shundan dalolat beradi. Bu o’ziga xos hodisani ikki adabiy muhit qiyosida o’rganish adabiyotshunoslik uchun qiziqarli ma’lumotlarni taqdim etishi shubhasiz”⁴⁴.

Xorazmlik shoirlar Amiriyning “qil”, “muborak”, “qilmading”, “shaydolanmasun”, “sizmusiz?”, “aylansun”, “ey qumri”, “oshiq bo’lmisham”, “o’lturur” kabi g’azallariga mahorat bilan go’zal tatabbular bog’lashgan. “Badiiy mahorat – katta hayot haqiqatini jonli shaklda ifodalash san’ati”⁴⁵.

Amiriy ijodida “muborak” radifli g’azal mavjud bo’lib, ushbu g’azal badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. G’azal aruzning *rajazi musammani solimi maqbul* vaznida yozilgan. Ya’ni ruknlari: *mustaf’ilun -fauvlun-mustaf’ilun -fauvlun (- - v - / v - - / - - v - / v - -)* asllaridan hosil bo’lgan.

*Husning kamola etdi, ey mahliqo muborak
Oyinayi jamoling topdi safo muborak .(175)*

bayti bilan boshlanuvchi Amiriyning ushbu g’azali tavsifiy xarakterda bo’lib, unda ma’shuqa husn-u malohatda ham, ibo-hayoda ham kamolga yetganligi va jamol oyinasi soflik bilan go’zallashgani qutlanadi.

Avaz O’tar ham Amiriy izidan borib, mazkur g’azalga tatabbu bitadi. Amiriy g’azali to’qqiz baytdan iborat bo’lsa, Avaz O’tar yetti baytli tatabbu bitgan. Har ikki g’azalda ham vazn bir xil, radif aynan takrorlangan, qofiyalar ham o’xshash, birinchi bayt ham mantiqan bir xil:

*Topmish kamol husning, ey mahliqo muborak.
Bermish bori jahonga nuri ziyo muborak.*⁴⁶

Tatabbuning har bayti Amiriy g’azaliga hamohang yaratilgan. Ikkinchi baytda Amiriy yuzlarini oynadan yashirib, juda yaxshi ish qilgan oy yuzli ma’shuqani sharm-u hayo bilan, Avaz esa zeb-ziynatlar emas, balki jamoli zeb-ziynatlar ko’rkini ochgan ma’shuqani gulgun qabo bilan tabriklaydi; g’azalning uchinchi baytida yuziga pardoz berib, oshiq qonini to’kkan go’zalga qo’llaridagi xina bilan, tatabbuda ishq ahli orasida mehrlil va sodiq ma’shuqa bazmga kirib kelishi bilan qutlanadi; to’rtinchi baytda endi har ikki shoirning lirik qahramoni ma’shuqadan bir oz ranjiydi: oshiqqa zulm paymonasini ushatgan, raqiblarga esa ahd-u vafo qilgan, shum ag’yorga lutf-u marhamat ko’rsatgan mahbuba kinoya bilan olqishlanadi; g’azalning beshinchi bayti podshoh Amiriyga xos buyruq ohangida bitilgan: malohat taxtining sultonimisan, vafo qil! Ikkinchi misrada esa tamsil keltiriladi: shohdan karam, saxovat qilish, quldan esa duo kutiladi. Avaz baytga boshqacha yondashadi: ma’shuqa bu oqshom jabr-u javo odatini tark aylab, vafoni odat qilibdi, bu hol muborak bo’lsin! G’azalning oltinchi baytida oshiq bir sho’x

⁴³Хаққул.И. Ибрат ва маҳорат мактаби // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. № 4-сон. – Б. 17.

⁴⁴Qobilova Z. Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B.196.

⁴⁵ Хаққул И. Шеърят – рухий муносабат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 192.

⁴⁶Аваз Ўтар. Сайланма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.105.

dilraboning asiri bo'lganidan xursandlik, boshiga kelgan bu savdoni Xudo muborak qilishidan quvonish, tatabbuda xuddi hayit bayramidek, bir kun visol kuni ham kelishidan umidvorlik aks etgan. G'azal maqta'sini Amiriy faxriyasi o'laroq qabul qilish o'rinli bo'ladi:

*Ul sarvqad xayolin qilding Amir insho,
Tab'i salim birla fikri raso muborak (1, 175)*

ya'ni ul sarv bo'ylik yor xayolini shunday yozdingki, ta'bi sa'lim va fikri rasolik muborak bo'lsin! Bu o'rinda Amiriy ma'shuqa ta'rifini maromiga yetkazib ta'riflashda unga Yaratgandan berilgan iste'dod qo'l kelganligini ta'kidlaydi. Avaz O'tarda esa ma'shuqa visoli oshiq uchun faqat orzu bo'lib qolishiga ishora qilgandek umidsizlik bor:

*Shum muddaoiy yuzina solma nazar Avazkim,
Diydorin oni ko'rmak oshiqqa nomuborak.⁴⁷*

Xorazm adabiy muhitining asoschisi Feruz ham, Ogahiy ham, adabiy muhitning yana bir yirik vakili Otaniyoz Niyoziy ham Amiriyning ushbu "muborak" radifli g'azaliga tatabbu qilganlar. Otaniyoz Niyoziy o'z g'azalida ma'shuqa ta'rifida "shohi zamon", "shamshod-u sarv qadli", "mushkin qosh", "o'q otar mujgonli", "kamon qosh", "sulaymoni farmonpazir" kabi tashbehlarni qo'llab, o'zini u ham "qul" deb ataydi:

*Ko'ying aro Niyoziy, bir kamtarin g'uloming,
Chokarlaring ichida bu notavon muborak.⁴⁸*

Feruz ijodida esa ushbu g'azal biroz o'zgacha tus oladi: tatabbuda Feruz raqqosani ta'riflaydi. Ya'ni "Olding niqob yuzdin", "Kelding taraxxum aylab" "Bu va'dalarga vafo qilding", "Gohi tabassum aylab", "Ulusdin chiqmay raqqoslik qilib", "Yuz bo'sa bir diramga qilding baho" deya u go'zaldan ko'ngli to'lmay oxir oqibat o'ziga o'zi uning qosh-u ko'ziga maftun bo'lma, chunki ul sho'xi nomuborak hayosiz ekan, deydi. Feruz dilrabo, ziyo, aro, vafo, ado, navo, baho kabi so'zlarni qofiya sifatida qo'llab, mavzuda ham, yangilik qiladi.

Amiriyning "Parivash dilrabolar barchasi boshingdin aylansun, Sochi sunbul sanamlar zulfi chirmoshingdin aylansun".⁴⁹ matla'li g'azaliga Xorazm adabiy muhitining ko'plab shoirlari tatabbu bog'lashgan. Amiriyda raqiblar ma'shuqaning oshiqqa berayotgan ozorlaridan quvonsalar, Ogahiyda raqiblar ma'shuqaga hamrohlik qiladi. Rojiiyda esa, ma'shuqaning ag'yorga tosh otishi ham lutf qilishga tenglashtiriladi. Ko'rinadiki, badiiy barkamol g'azal tatabbularni ham go'zal bo'lishiga asos bo'lgan.

Amiriy ijodidan bahramand bo'lganlardan biri zabardast shoir Komil hisoblanadi. U ham Amiriyning "qil" radifli g'azaliga tatabbu qilgan.

*Gulshani jamolingda kokuling parishon qil,
Lola birla sunbulni dog'i chini pechon qil⁵⁰.*

⁴⁷ Avaz Ўтар. Сайланма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – Б. 105.

⁴⁸ Otaniyoz Devon Oxund. Devoni Niyoziy. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B. 140.

⁴⁹ Мухаммад Юсуф Рожий Хоразмий. Жамолинг гулшанининг булбулиман. Танланган асарлар. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. – Тошкент, 2008. – Б. 87.

⁵⁰ Комил. Девон (Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б. 113.

Amiriy matla'sining ikkinchi misrasi Komil tatabbusida yangilangan shaklda takrorlanadi:

Amiriy:

*Lab uyur takallumg'a, zulfni parishon qil!
Qand qiymatin sindur, narxi anbar arzon qil! (1, 218)*

Komil:

*Xat ayon etib la'ling ustida zumuradning
Qadru qiymatin sindur, la'l narxin arzon qil!*⁵¹

G'azalda qandning shirinligi jihatidan labga, anbarning xushbo'yliги jihatidan zulfga nisbati bo'lsa, tatabbuda yashil tusiga ko'ra zumrad ma'shuqa xatini, cho'g'day qizilligiga ko'ra la'l labini tamsil etib kelmoqda. Ya'ni ma'shuqaning labi ustidagi mayin tuklari – la'lni qurshagan zumradi zumradning bozorini kasod qilsa, zumrad qoplagan la'li la'lning narxini tushirib yuboradi.

Umuman olganda, shoirlar Amiriy boshlab bergan silsilani davom ettirgan holda, u yaratgan betakror ijod olamining o'ziga xos kashfiyoti sanalmish 123 ta radif zahirasi bilan unumli foydalangan. Amiriyga ergashib juda go'zal o'xshatmalar qilish orqali nafaqat o'z ijodlarini, balki Xorazm adabiy muhitini ham yangi san'at asarlari bilan boyitganlar. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, shoirlar tatabbunavislikka faqatgina ijodiy mahoratni yuksaltirish vositasi sifatidagina qaramay, unga tengsiz iste'dod sohiblari, yetuk san'atkorlar bilan bo'ylashish imkoniyati sifatida qaraganlar.

Bobning ikkinchi fasli "**Taxmislar badiiyati**" masalalariga bag'ishlangan. She'riyatimizda taxmis faqatgina salmog'i bilan emas, balki imkoniyatlarining kengligi, mazmun ifodalash uchun qulayligi, ohangdorlikning yuqoriligi va musiqiyliги bilan g'azaldan keyingi ikkinchi o'rinni olib ulgurgan. Xorazm shoirlari ijodida keng tarqalishining asosiy omillaridan biri ham aynan shu. Chunki Xorazmda ijod jarayonida taxmisga alohida e'tibor bilan qarash kuzatiladi. O'zbek adabiyotida Hofiz Xorazmiy nomi bilan boshlangan taxmis yaratish an'anasi XIX-XX asrlarda ham jadal davom etdi. Taxmisning o'tmishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uni mumtoz adabiyotimizda juda faol qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. U fikr va his-tuyg'ularni ifodalashga juda qulay, g'azal va ruboiy kabi sermahsul janr sifatida rivojlanishda bo'lgan. Xattoki adabiyotimiz tarixida faqatgina muxammaslardan tuzilgan butun boshli devonlar mavjudligi aytiladi.⁵²

Amiriyning o'ziga xos uslubi, betakror iste'dodi, yuksak salohiyati, tinimsiz mehnatlari natijasi o'laroq dunyoga kelgan «qil», «evaz», «muborak», «aylansun» radifli, «Kulbam sori gar kelsangiz, jon naqdidir podoshingiz» misrasi bilan boshlanuvchi g'azallariga Xorazm shoirlari badiiy barkamolligi jihatdan bir-biridan qolishmaydigan shunday taxmislar yaratganlarki, ushbu asarlar ustozlardan o'rganish, saboq olish, ularga fikrda yaqin bo'lish, e'tiqod qo'yish, salaflarga hurmat ko'rsatish, o'tmish ajdodlarining an'analarini davom ettirish asnosida maydonga kelgan va tabiiyki, bu ularning ijodlari ravnaqiga hissa qo'shgan.

⁵¹ Комил. Девон (Нашрга тайёрловчилар: А.Хайитметов, В.Мўминова). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б. 113.

⁵² Ўлдашева М. Аваз шеърлятида анъана ва маҳорат. Филол. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 58.

Xorazm adabiy muhitining iste'dodli namoyondalaridan biri Ahmadjon Tabibiy Amiriyning boshdan oyoq tamsil san'atiga asoslangan g'azaliga taxmis bog'lagan. "Taxmis bog'lanayotgan g'azalga qo'shilayotgan misralar bayt oldidan keltirilishi jihatidan unda ifodalangan fikrni tushunishga o'ziga xos zamin yaratishi, uni sharhlab, izohlab, rivojlantirib, to'ldirib kelishi taqozo qilinadi"⁵³. Tabibiy bu qoidalarga rioya qilgan. Amiriy g'azalda *podosh, farrosh, kengosh, qosh, yo'ldosh, xuffosh, yosh, bosh* kabi arabiy va turkiy so'zlarni qofiya qilib olgan. Qofiyaga olingan so'zlardan keyin egalik qo'shimchasi ham kelib mutloq qofiya turini tashkil etgan. G'azal aruzning rajazi musammani solim (mustaf'ilun-mustaf'ilun-mustaf'ilun-mustaf'ilun, (--v--,--v--,--v--,--v-)) vaznida yozilgan. Tabibiy ham ayni mazmun teranligi va tasvir go'zalligini saqlab qolgan. Agar kulbasiga yor kelsa, badaliga jonini va'da qilayotgan, yo'lga ko'zyoshi ila suv sepib, mujgonlari ila supirishini ixtiyor etgan shoirning dard-u izhorlarini ohang va mohiyatda to'ldiradi:

*Man xastadurman ko'yingiz sahnida bir avboshingiz,
Balkim hama avboshlar ichra kamin qalloshingiz,
Ne bo'lg'ay emdi lutfingiz bir kun bo'lub yo'ldoshingiz,
Kulbam sori gar kelsangiz jon naqdidur podoshingiz,
Ko'z ashki birla suv sepib mujgon bo'lur farroshingiz*⁵⁴.

Xiva adabiy muhitining taniqli namoyandalaridan Rojiy ham Amiriy ijodidan yaxshi xabardor bo'lgan. Shoir devonida uning "soqiy" radifli g'azaliga bog'lagan taxmisini ko'ramiz. Ma'lumki, Rojiy nafaqat usta g'azalnavis, balki mohir muxammasnavis ham bo'lib, o'zi o'zbek va tojik tillarida tab'i xud muxammaslar yozish bilan birga Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil, Ziyrak kabi shoirlarning ko'plab g'azallariga ham mahorat bilan taxmis bog'lagan. Amiriy g'azaliga bog'lagan muxammasi ham o'zining badiiy barkamolligi bilan ajralib turadi. Muxammasnavislikda katta tajriba hosil qilgan Rojiyning Amiriy baytlariga qo'shgan misralari ham go'yoki salafi fikrlari xazinasiga o'ziga xos ochqich bo'lib xizmat qilgan. Chunonchi:

*Yuzumga har nafas yuz koj urub dardu balo ilki,
Tani zorimni ming chok aylabon ranju ano ilki,
Bu yonglig' tortibon ming ranj etmay bu gado ilki,
Chamanda sunbulingni tor-tor etmish sabo ilki,
Bu qayg'u birla zulfingdek parishondurman, ey soqiy*⁵⁵.

G'azaldagi: "Sabo chamanda kokilingni tor-torga ajratib yozib tashlaganligini ko'rib, bu g'amdan mening ham ko'nglim soching kabi parishon bo'ldi (chunki men qo'l tegizishni ravo ko'rmagan sochlaringni sabo qo'li o'ynadi-da)", – degan fikrni tatabbu muallifi – uni sharhlovchi shunday misralar bilan to'ldiradi: "Yuzumga har nafas dardu balo qo'li tarsaki tushiradi. Ranju mashaqqat qo'li esa zaif tanimni ming bir bo'lak qiladi. Ana shunday mushkulotlar ostida qolgan bu

⁵³Qobilova Z. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – B. 197.

⁵⁴Аманов Ш. Аҳмад Табибий ва Қўқон адабий муҳити: адабий таъсир масалалари // "Тафаккур зиёси" илмий-услубий журнали 2022/ маҳсу сөн. – Ж. 2022. – Б. 38.

⁵⁵Мухаммад Юсуф Рожий Хоразмий. Жамолинг гулшанининг булбулиман (Нашрга тайёрловчи: М.Бердимуродова). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б. 126.

gadoning qo‘li sening sochingga yetmay, uni chamanda sabo o‘ynab, tor-torga ajratganini ko‘rib, g‘am-u qayg‘uga cho‘mib, holim zulfingdek parishon bo‘ldi”.

Taxmis bog‘lash orqali Amiriya mushtarak fikrlar, hamohang tuyg‘ular g‘azal baytlari oldidan qo‘shilib, ular rivojlantirilgan, to‘ldirilgan va ikki shoir ittifoqining samarasi bo‘lgan yangi asar dunyoga kelgan. Umuman olganda, Amiriy nafaqat Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodiga, balki Xorazm adabiy muhiti vakillariga ham salmoqli ta’sir o‘tkazgan. Buni Amiriy g‘azallariga qilingan tatabbular, taxmislar ham tasdiqlaydi.

XULOSA

1. Xorazm juda qadim zamonlardayoq ilm-fan va madaniyat rivojlangan mamlakat sifatida Misr, Bobil, Iroq, Eron, Hindiston, Qadimgi Yunoniston va Rim mamlakatlari qatorida turgan. XVIII–XIX asrlarda Xorazmda boshqa sohalar qatorida, adabiyot, xususan, she’riyat bir qadar darajada rivoj topdi. Lirik turning ko‘plab janrlari o‘zining takomiliga erishib bordi, tarjimachilik va tarixchilik rivoj tordi.

2. Adabiy muhitning shakllanishi va uning rivojida unga homiylik qiladigan hukmdorning o‘rni alohida bo‘lsa-da, lekin adabiy muhitning vujudga kelishi aynan yagona davlat boshlig‘ining o‘zi bilan belgilanmaydi. Bil’aks adabiy muhitning vujudga kelishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, uning genezisi adabiy muhitning to‘la ma’noda shakllanishidan ancha oldingi davrlarni ko‘zda tutadi.

3. Qo‘qon va Xiva xonliklaridagi adabiy jarayonlar – Markaziy Osiyo madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan davr bo‘lib, bu xonliklarda XVIII-XIX asrlarda adabiyot sezilarli darajada rivoj tordi. Har ikki xonlikda ham adabiy muhit hukmdorlar homiyligida shakllangan, ko‘plab iste’dodli shoirlar yetishib chiqdi. Har ikki adabiy muhitda badiiy ijodda klassik uslubga tayanilgan va xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashgan. Shoirlar ko‘proq tasavvufiy, ma’rifiy, tarixiy, ijtimoiy-tarbiyaviy, axloqiy pand-nasihat kabi mavzularni qamrab olgan.

4. Amiriy va Feruz o‘zbek adabiyoti tarixida ham shoh, ham shoirlik taqdiriga sazovor bo‘lgan siymolar qatoridan o‘rin olgan. Ularga xos umumiy xislatlar davlat ishlari bilan band bo‘lganlari holda, adabiyot va san’at rivojini tashkil va ta’min etishda, ham amaliy, ham ijodiy ishlari bilan o‘z davri adabiyoti taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iboratdir.

5. Amiriy shoir sifatida Sharq adabiyotida o‘zining bir necha asrlik tarixiga ega bo‘lgan an’analarning davomchisidir. Amiriyning adabiy faoliyati nafaqat adabiy-estetik, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa. Chunki o‘sha davrda adabiyot borliqni obrazli tasvirlash vositasi bo‘lish bilan birga jamiyat mafkurasining muhim manbai hisoblangan. Bu, ayniqsa, Umarxon tomonidan 100 ga yaqin shoirlarning saroy atrofidagi bir adabiy muhit doirasida birlashtirilishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

6. O‘z davri, o‘z mintaqasi uchun ulkan adabiy muhit hozirlagani holda qo‘shni adabiy muhitning shakllanishi va rivojlanishi uchun ta’sir ko‘rsata olgan Amiriy o‘zbek adabiyotida Hazrat Navoiydan keyin turuvchi iste’dod sohibidir. Shu boisdan ham u hayotlik paytidan boshlab to bugungi kungacha bo‘lgan adabiy

jarayonlarda shoir ijodiga ayricha munosabat bildirilganligini ko'ramiz. Amiriy Sharq mumtoz so'z san'atidagi ilg'or an'analar doirasida ijod qilib, she'rlarida o'ziga xos nozik va teran fikrlar, ohorli va go'zal tashbehlar, jozibador va ta'sirchan tasvirlar bilan noyob badiiy kashfiyotlar yaratgan mahoratli shoirlar sirasiga kiradi.

7. XIX asr Xorazm adabiy muhitida Amiriy ijodiga qiziqish, uning lirikasini chuqur o'rganish ishlari jonlanib ketdi. Amiriy an'analarini ijodiy o'zlashtirish va rivojlantirishga intilish kuchaydi. Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasi va Amiriy devoni keng tarqalib, Ogahiy, Komil, Tabibiy, Bayoniy, Avaz, Niyoziy kabi ko'plab shoirlarni o'z ta'sir doirasiga tortgan hamda ular shoh-shoir g'azallaridan ilhomlanib, ularga tatabbular qilganlar, taxmislar bog'laganlar, uning asarlari uslubi va ohangida she'rlar bitganlar.

8. Tatabbunavislik Qo'qon va Xiva adabiy muhitlarida nihoyatda rivojlangan. Umarxon saroyining malikushshuarozi Fazliy Namangoniyning "Majmuat shuaro" ("Shoirlar majmuasi") tazkirasi asosan shoh-shoir g'azallariga qilingan tatabbulardan iborat bo'lgani kabi, Ahmadjon Tabibiyning "Majmuai si shuaro" payravi Feruzshohiy" tazkirasi ham Xiva adabiy muhiti shoirlarining Feruz g'azallariga qilgan tatabbulari asosida jamlangan.

9. Amiriy ijod gulshanidan bahra olish, u qo'llagan tashbeh-u sifatlashlar, istioralar, mazmundagi chuqur falsafiylik, hayotga oshiqlik, komillik sari intilish va boshqa unsurlar Xorazmlik shoirlar taxmislarining mag'iz-mag'ziga singib ketgan. Taxmislar, aytish mumkinki, hamma tomondan Amiriy uslubi, dunyoqarashi, g'oyasi, badiiy ifoda vositalariga yaqinlashib borgan. Taxmislarda badiiy detallar shunchaki qo'llanilmaydi. Ulardagi so'zlar, harflar, tovushlar o'ziga xos, yangicha ohang kasbetadi.

10. Xorazmlik shoirlar taxmisleri o'zi bog'lanayotgan g'azal baytidagi fikrga zamin hozirlash, uni rivojlantirish, uning sababini ochish va yangi qirrasiga e'tibor qaratish kabi vazifalarni bajaradi. Kiritilgan misralar lirik qahramonning ruhiy holati, komillik yo'lidagi riyozatlarini yanada kengroq va to'laroq ochishga xizmat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 UNDER
KOKAND UNIVERSITY FOR AWARDED THE DEGREE OF
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN PHILOLOGICAL SCIENCES**

FERGANA STATE UNIVERSITY

RAIMOVA KHILOLA MA'MURJON KIZI

THE LITERARY ENVIRONMENT OF AMIRIY AND KHOREZM

10.00.02 – Uzbek Literature

DISSERTATION ABSTRACT
for the degree of doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation was registered at the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.3.PhD/Fil3757.

The dissertation was carried out at Fergana State University.

The author's abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, Russian, and English (summary)) has been uploaded to the official website of Kokand University at (www.kokanduni.uz) and to the "Ziyonet" information-educational portal at (www.ziyonet.uz.)

Scientific Supervisor: **Qobilova Zeboxon Bakirovna**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official Opponents: **Rajabova Marifat Baqoyevna**
Doctor of Philological Sciences, Professor

Asqarov Dilmurod Musajon o'g'li
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Leading Institution: **Namangan State University**

The defense of the dissertation will take place at the meeting of Scientific Council №. PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 authorized to award academic degrees, at Kokand University on "30" "12" 2025 at 14:00 (Address: 170100, Kokand city, Turkiston Street, House 28-a).

The dissertation is available for review at the Information Resource Center of Kokand University (registered under №. 18). (Address: 170100, Kokand city, Turkiston Street, House 28-a).

The author's abstract of the dissertation was distributed on "18" "12" 2025.
(Registry protocol №. 5 dated "18" "12" 2025.)



Jamrud
B.S. Ja'farov
Chairman of the Scientific Council for Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

M.G. Najmiddinov
M.G. Najmiddinov
Secretary of the Scientific Council for Awarding Academic Degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

G.M. Oripova
G.M. Oripova
Chair of the Scientific Seminar under the Scientific Council for Awarding Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

INTRODUCTION (abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world literary studies, the issues of literary influence and interliterary relations have always remained on the agenda. Every work of art created over the centuries is not only the product of the intellectual spirit of its time, but also a new expression of traditions that have developed and been passed down through a chain of continuity. Therefore, studying this issue as an object of scientific research and determining its historical development has long held significant importance in literary scholarship.

In world literary studies, the issue of aesthetic appreciation and influence in artistic creation is considered one of the fundamental scholarly problems requiring investigation. In particular, following predecessors and contemporary prominent poets, as well as engaging in artistic creation modeled after their works, was a widespread phenomenon in classical Eastern literature. As a result of literary influence, talented creators enhanced their worldview, improved their mastery, and refined their stylistic skills.

In Uzbek literary studies, the need for a comprehensive examination of the creative works produced by classical literary masters is steadily increasing. Indeed, “the thorough study and broad promotion of Uzbek classical and modern literature, its analysis in connection with the complex processes occurring today, and the drawing of necessary conclusions are undoubtedly of great importance in elevating our spiritual life”¹.

In this regard, thoroughly exploring Amiriy’s creative legacy and his influence on the works of Khorezm poets is considered one of the urgent tasks facing our literary scholarship.

The tradition of master–disciple relationships was widely practiced in the East. For disciples, being worthy of their masters and attaining their level was regarded as great honor. Umarxon Amiriy, counted among the distinguished literary figures who contributed significantly to the development of Uzbek classical literature, was regarded as a mentor not only by poets of his own time but also by poets of subsequent centuries. This is because he masterfully synthesized the advanced traditions and major achievements of pre-existing Turkic and Persian literature in his creative work.

Studying the impact of Amiriy—the founder and brilliant representative of the Kokand literary environment—on the Khorezm literary milieu will undoubtedly yield important scholarly conclusions for Uzbek literary studies. The significance and relevance of the topic are defined precisely by these factors.

The present dissertation research contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks outlined in the following regulatory documents: the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6097 of October 29, 2020, “On Approving the Concept for the Development of Science until 2030”; the Presidential Decree No. PF-6108 of November 6, 2020, “On Measures to Develop Education, Upbringing, and Science in the New Development Period of

¹Мирзиёев Ш. Эркин Воҳидов ижодига бағишланган адабий фестивалъ катнашчиларига табриги. 23.05.2024. <https://president.uz/oz/lists/view/7253>.

Uzbekistan”; the Resolution of the President No. PQ-4865 of October 19, 2020, “On Celebrating the 580th Anniversary of the Great Poet and Thinker Alisher Navoi on a Large Scale”; the Presidential Resolution No. PQ-54 of February 2, 2024, “On Additional Measures to Accelerate Reforms in the Field of Education”; as well as other normative-legal documents related to this sphere.

Relevance of the research to the priority areas of the development of science and technology in the republic.

This dissertation research has been conducted in accordance with Priority Area I of the development of science and technology in the Republic—“The social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development of an information-based society and a democratic state, and the development of an innovative economy.”

The historical development of Uzbek classical literature—particularly the examination of literary traditions formed over centuries, the expressive power of artistic language, and its aesthetic potential—highlights the special significance of Amiriy and his role in the advancement of Uzbek classical literature. Approaching Amiriy’s creative heritage from a literary-scientific perspective, especially in relation to his contribution to the development of literary influence, has resulted in substantial scholarly research. In this regard, comprehensive information is provided in the studies of the prominent Amiriy scholar, Doctor of Philological Sciences, Professor Zeboxon Qobilova².

Issues such as literary influence, interliterary relations, the distinctive features of Turkic aruz and rhyme, artistic style, tradition and innovation have always been on the agenda of Uzbek literary studies³.

A number of studies have also been conducted on the Khorezm literary environment, the lives and creative works of its representatives, as well as on the phenomenon of imitation and follower-ship in artistic literature⁴.

²Бу ҳақда қаранг: Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти. Филол. фан. номз. ...дисс... – Тошкент, 2007. – 134 б.; Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърляти мисолида). Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2021. – 280 б.

³Аҳмад Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазиана, 1985. – 216 б; Фитрат А. Адабиёт коидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 112 б; Акрамов Б. Ҳозирги замон муҳаббат лирикасида традиция ва новаторлик проблемаси. Филол. фанл. номз... дис. – Тошкент, 1967. – 172 б; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. (Қадимий давр ва ўрта асрлар мадания алоқалари). – Тошкент: O‘zbekiston, 1997. – 210 б; Абдуғафуров А. Қалб қаъридаги қадриятлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – 216 б; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б; Муҳиддинов М. Қ. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепсияси (“Хамса”ларнинг биринчи дostonлари асосида). Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Самарқанд, 1995. – 288 б; Рўзмонова Р. Алишер Навоий аъналарининг Усмонли турк шеърлятига таъсири. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2011. – 146 б; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт аъналарини ва маҳорат масалалари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 260 б.

⁴Халлиева Г. Огаҳий мусамматлари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – 208 б; Ruziboyev T. Taxmis genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi (Alisher Navoiy an’analari asosida). Filol. fan. b. fals. d-ri. ... diss. – Namangan, 2023. – 132 б; Исмоилова Г. Феруз даври Хоразм адабий муҳити. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995; Маткаримова С. Табиий – тазкиранавис (“Мажмуаи си шуаройи пайрави Ферузшоҳий” асосида). Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2007; Файзуллаев Б. Ўзбек шеърлятида татаббу тарихи ва маҳорат масалалари. – Тошкент, 2002; Мирзаев В. Аваз Ўтар ўғли (ҳаёти ва ижоди). Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1962; Матёкубова Т. Огаҳий шеърлятида аънавий образлар талқини. Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2000; Йўлдашева М. Аваз шеърлятида аъна ва маҳорат. Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2006; Гойипов Д. Огаҳийнинг бадий маҳорати. Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2021.

Relevance of the research topic to the research plans of the higher education institution where the dissertation was carried out.

The dissertation was completed within the framework of the research theme “*Problems of Poetics*” included in the scientific research plan of Fergana State University.

The aim of the research is to scientifically substantiate the criteria of literary influence and creative follower-ship in classical and modern literary studies, using the example of Amiriy’s influence on the Khorezm literary environment.

Research tasks:

to study the history of the Kokand and Khorezm literary environments and identify their distinctive features;

to compare the roles of Amiriy and Feruz in cultural life;

to reveal the issue of literary influence in 18th–19th century Uzbek classical poetry through Amiriy’s impact on representatives of the Khorezm literary milieu, including Munis, Feruz, Ogahiy, Tabibiy, Avaz, Rojiy Khorazmiy, and Otaniyoz Niyoziy;

to examine the poetics of tatabbu (imitation) and takhmis (five-line poetic elaboration) written in response to Amiriy.

The object of the research consists of Amiriy’s “Devon (Volume I, Uzbek Poems)” published in 2017, as well as the divans of Feruz, Munis, Ogahiy, Rojiy, Avaz, Tabibiy, Otaniyoz Niyoziy, and Komil Khorezmi.

The subject of the research is the mutual influence and follower-ship reflected in the comparative study of the poems included in Amiriy’s Uzbek divan and the creative works of Khorezm poets, as well as issues related to literary tradition, originality, and artistic mastery.

Research methods.

In covering the research topic, sociological, historical-comparative, historical-cultural, contextual, and hermeneutic analysis methods were employed.

Scientific novelty of the research:

The issue of Amiriy’s influence on the Khorezm literary environment has been studied monographically for the first time. Common and distinctive features of the literary environments of Amiriy and Feruz have been identified.

It has been substantiated that Khorezm poets such as Munis, Ogahiy, Feruz, Tabibiy, Otaniyoz Niyoziy, Avaz, Komil Khorezmi, and Rojiy were influenced by Amiriy’s poetry in terms of thematic approach, the nature of imagery, and the expression of emotions.

In the tatabbu (imitations) of Amiriy’s ghazals, it has been determined that poets primarily sought to introduce innovations in rhyme while approaching Amiriy’s style, worldview, and artistic means of expression.

The takhmis (five-line elaborations) composed by Khorezm poets for Amiriy’s ghazals have been shown to fulfill such functions as preparing the ground for the meaning expressed in the original couplet, developing it further, revealing its cause, and highlighting new aspects; the added lines effectively served to more broadly and fully reveal the emotional state of the lyrical persona.

Reliability of the research results.

The reliability of the results is ensured by the clear formulation of the research problem; the substantiation of conclusions through historical-comparative, historical-cultural, and hermeneutic analysis methods; the use of credible theoretical sources, manuscripts, lithographed books, and dictionaries; the practical application of theoretical ideas and conclusions; and the validation of the obtained results by authorized institutions.

Scientific and practical significance of the research results.

The scientific significance of the research lies in enriching theoretical views related to the history of Uzbek classical literature and literary studies, particularly in contributing to the understanding of literary tradition, influence, and the role of literary impact in the development of artistic creativity.

The practical significance of the research results lies in the fact that the materials of the dissertation may be used in the creation of a new generation of textbooks and teaching manuals for master's and bachelor's degree programmes in higher education institutions in the subjects "History of Uzbek Literature," "History of Uzbek Literary Studies," and "Theory of Literature." They may also be utilized in academic lectures, elective courses, and in lectures prepared to instill national and spiritual values in the consciousness of young people.

Implementation of the research results.

The implementation of the scientific conclusions obtained during the study of Amiriy and the Khorezm literary environment is reflected in the following:

The fact that the issue of Amiriy's influence on the Khorezm literary environment has been monographically researched for the first time, and that common and distinctive features characteristic of the literary environments of Amiriy and Feruz have been identified, has been applied in the activities outlined in Direction V ("Measures for the development of culture, art, theatre, museums, readership, and creativity") of the Programme of Measures to Improve the Effectiveness of Spiritual and Educational Work and Develop the Sector, approved by the Republican Center for Spirituality and Enlightenment on January 4, 2024.

Specifically, dissertation materials were used in organizing and conducting promotional activities under Item 40 of the programme:

"To identify talented youth in our country, support their creative aspirations, and introduce to a wide readership and encourage artistic works that glorify the Motherland, promote the rich spiritual heritage of our ancestors, as well as national and universal values, and celebrate creativity and constructive efforts—by holding a creative competition in the nominations 'Best Poetry Cycle,' 'Best Prose Work,' 'Best Essay,' and 'Best Fairy-Tale Collection.'"

